

Tomorqa – koni foyda, orzu-havas manbai

Qo'shtepa tumanidagi "Paxtakor" mahallasining aholisi ko'p yillardan buyon erta bahorda tomorqasiga kartoshka, pomidor, bodring, piyoz, bulg'or qalampiri, karam va boshqa sabzavot mahsulotlari bilan birga qulupnay ham ekip parvarishlab kelishmoqda. Bugun o'ttizdan ortiq xonadon tomorqasida albatta, qulupnay yetishtirilayotganini ko'rish mumkin.

Mirishkor dehqon Abdurashid Mamataliyevni olsak, hovlisi etagidagi 6 sotixga yetadigan tomorqasini yashnatib qo'yanidan bahri-dilingiz ochiladi. Qolaversa u qo'shimcha yerda olti yil muqaddam xorijdan keltirilgan serhosil qulupnay ham yetishtirmoqda.

Abdurashid Mamataliyevning ta'kidlashicha qulupnaydan yil bo'yi daromad olish mumkin ekan. Bu yilgi hosil ham ancha barakali bo'ldi.

- Qulupnay yetishtirish o'ziga xos tajriba va bilim talab etadigan, o'ta nozik ish – deydi Abdurashid Mamataliyev. - Qulupnayning "Qora marvarid" navini ekip parvarishlayapmiz. Bu navni afzallik tomoni yil bo'yi daromad olishingiz mumkin. Mana, sentiyabr oyida ham 12 million so'm daromad oldik. Hali dalada hosil mo'l.

Darhaqiqat mirishkor dehqonning ta'biri bilan aytganda, tomorqa – koni foyda, orzu-havas manbai. Hech narsaga zoriqmay degan kishi borki, tomorqasini qarovsiz tashlab qo'ymasligi kerak.







2024-10-02 16:59:01